

O‘zbekiston
Metama’lumot
Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqilgan sana: 30.12.2021

Oxirgi yangilangan sana: 30.12.2021

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma‘muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;

- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditori yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma‘lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma‘lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma‘lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma‘muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizomda, Davlat statistika qo‘mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma‘lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma‘lumotlarning maxfiylikni va davlat sirlariga ega bo‘lgan statistik ma‘lumotlarning himoya qilinishini ta‘minlashi belgilab qo‘yilgan.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma‘lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Markaziy apparatda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to‘g‘risidagi axborotlarni shakllantirish ishlari 4 nafar, hududiy statistika boshqarmalarida – 2 nafar, tuman, shahar statistika bo‘limlarida 1 nafar xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish uchun qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun xodimlar soni yetarli va xodimlar mos ko‘nikmalarni

saqlash va rivojlantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishga layoqatli. Barcha xodimlar iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotga ega.

Ko'nikmalarni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish muntazam ravishda mutaxassislar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti taklif etiladigan kurslarda xodimlarni o'qitishga asoslangan.

Boshqarma yetarli miqdordagi kompyuterlarga ega bo'lib, har bir xodim alohida o'zlariga birlashtirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangilanib turadigan kompyuterlarda ishlaydi.

Berilayotgan moliyaviy manbalar statistika dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish,

ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarining atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Mazkur axborotlar choraklik va yillik asosda hisobga olish maqsadida shakllantiriladi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish va aniqlash uchun 1-fx shakli (yillik) hamda 2-fx (yilda 2 marta) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-dx shakli (yilda 2 marta) "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot", 1-qx shakli (yillik) va 4-qx shakli (choraklik) "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-kb shakliga ilova (qx) (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" statistika hisobotlari statistik axborotlaridan foydalaniladi hamda ushbu ko'rsatkich quyida keltirilgan hisobotlarda sentnerda ko'rsatiladi (tonnaga o'giriladi).

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.
Xo'jaliklar qamrovi: fermer, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar.
Dehqonchilik mahsulotlarini turlari bo'yicha qamrov: qishloq xo'jaligi bo'yicha statistika hisobotlarida keltirilgan.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisno yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan topshiriladigan statistika hisobotlariga va tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga asosan shakllantiriladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar statistika organlariga yuridik shaxslar, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan topshiriladigan statistik hisobotlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllantirilishi uchun axborotlar manbai qishloq xo'jaligi bo'yicha mos birlamchi statistika hisobotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

- Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar fermer, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun statistika hisobotlari asosida har chorakda va yilda bir marta shakllantiriladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi statistik axborotlar fermer xo'jaliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan davlat statistikasi organlariga taqdim etiladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Axborotlarni tayyorlash qat'iy ravishda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Choraklik ma'lumotlar 20 kundan, yillik ma'lumotlar 3 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin qayta ishlanadi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Sub'ektlardan olingan ma'lumotlar nafaqat hududiy statistika boshqarmalari darajasida, balki Davlat statistika qo'mitasida muqarrar nazorat va tekshiruvlardan o'tadi. Axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda albatta sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar choraklik asosda oraliq ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Chiquvchi statistik ma'lumotlardagi farqlar o'rganiladi, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan yil natijalari bilan solishtiriladi, jiddiy farqlar sabablari aniqlanadi va tahlil qilinadi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Choraklik va yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi va choraklik ma'lumotlar 20 kundan hamda yillik ma'lumotlar - 3 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin rasmiy ravishda chop etiladi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda va yilda bir marta shakllantiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, hisobot davridan keyingi 20 kundan ko'p bo'lmagan davrda hamda yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 3 oydan kechiktirmasdan chop etiladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar ichki kelishilishi, vaqt bilan taqqoslanilishi bilan tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Yetarli davrlar uchun ma'lumotlarning vaqt bilan qiyosiy davriy qatorlari mavjud. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi dinamikalar 1991 yildan boshlab shakllantiriladi.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish statistika dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Ma'lumotlarni tarqatish vaqtida foydalanuvchilarga ma'lumotlarning dastlabki ekanligi ma'lum qilinadi.

Dastlabki ma'lumotlar nashr etilayotganda tegishli izohlar yoziladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Ko'rilayotgan ma'lumotlarning o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganligi tahlil qilinadi, bu esa ma'lumotlarning ishonchligini baholash imkonini beradi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar statistik jadval, yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida tarqatiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar statistik jadval, yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida foydalanuvchilarga tarqatiladi, hamda press-reviz ko'rinishida veb-saytga qo'yiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Statistik ma'lumotlar chop etilgan shaklda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi:

- «O‘zbekiston raqamlarda»
- «O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami»
- «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi»
- «Hududiy statistik to‘plami»
Bundan tashqari, statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarning so‘roviga ko‘ra taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Faqat statistik jadval ko‘rinishida mavjud.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadvallar, foydalanuvchilarning so‘rovlariga asosan.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 apreldagi PQ-4273-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi ochiq axborotlar portaliga joylashtirilgan.

Ma‘lumotlar har chorakda elektron statistik jadvallar ko‘rinishida, har yili byulleten va to‘plamlar ko‘rinishida davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga taqdim etiladi, shuningdek veb-saytda press-reliz ko‘rinishida joylashtiriladi.

5.1.3. Ma‘lumotlarni e‘lon qilish jadvali

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e‘lon qilish

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunga, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga, statistik ma‘lumotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlarini tashkil etish Reglamentiga va boshqa me‘yoriy hujjatlarga statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarning so‘roviga asosan belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga asosan taqdim etish yo‘li bilan chop etilgan yoki elektron jadvallar, statistik to‘plamlar, byulletenlar,

ekspres-axborotlar ko‘rinishida, hamda tomonlarning axborot almashinuv to‘g‘risidagi kelishuviga asosan taqdim etiladi.

5.2 Metama’lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma’lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarni tarqatish

Bitimlar, statistik qamrov, tasniflar, hisoblar asoslari, ma’lumotlar manbai va statistik uslublar to‘g‘risidagi ma’lumotlar statistik to‘plamlarda asosiy ko‘rsatkichlarga uslubiy tushuntirish ko‘rinishida aks ettiriladi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistika hisobotlari shakllari takomillashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistika hisobotlari shakllarini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha axborotlarni tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portaliga joylashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturlari doirasida ta‘minlangan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturlari doirasida ta‘minlangan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.Sh.:	G'ulomov Shovkat
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 202-80-51
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	selhoz@stat.uz